

Akalarning hasadi



12:10 / 03.03.2019 3669

2

Yusufning Binyamin ismli tug'ishgan ukasi bor edi. Ya'qub u ikkovini juda yaxshi ko'rar edi. Hech kimni ulardek yaxshi ko'rmas edi. Akalar esa Yusuf va Binyaminga hasad qilardilar va g'azab bilan: "Nega otamiz Yusuf va Binyaminni bizdan ko'pa ko'proq yaxshi ko'radi? Nega otamiz Yusuf va Binyaminni yaxshi ko'radi, axir ular kichkina va kuchsiz-ku? Nega bizni Yusuf va Binyaminni yaxshi ko'rganidek yaxshi ko'rmaydi, biz kuchli yigitlarmiz, bu ajoyib ishdir", deyishar edi. Yusuf kichkina bola edi, u tush haqida inilariga gapirib berdi. Tushni eshitishganida inilari qattiq g'azablanishdi va hasadlari yana ham kuchaydi.

Kunlarning birida inilar to'plandilar va: "Yusufni o'ldiringlar yoki uzoq yerga tashlab kelinglar. Shunda otangiz faqat sizlarga mehrda bo'ladi, sizlarni yaxshi ko'rishi ham musaffo bo'ladi", deyishdi. Ulardan biri: "Yo'q, uni yo'ldagi quduqqa

tashlanglar, uni ba'zi yo'lovchilar olib ketadi", degan edi, barcha inilar shunga rozi bo'lishdi.